



O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING O‘RGANILISHI

Nuriddinova Navbahor Shermuhammad qizi

298-maktab o‘zbek tili o‘qituvchisi

Abstract: O‘zbek tili ta’limida so‘z turkumlarini o‘rganish o‘quvchilarning grammatik bilimlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu so‘z turkumlari orasida sifat so‘z turkumi predmet va hodisalarning belgi-xususiyatlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu bois sifat mavzusini o‘rganish o‘quvchilarning nutqini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: nazariy tushunchalar, grammatik bilimlarini, yondashuv.

Sifat so‘z turkumini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar predmetning rangini, hajmini, holatini hamda boshqa belgilarini ifodalovchi so‘zlar bilan tanishadilar. Bu esa ularning atrof-muhitni til orqali aniqroq tasvirlashiga yordam beradi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sifat mavzusini o‘qitishda nazariy tushunchalar bilan bir qatorda misol va mashqlarga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Sifat so‘z turkumini o‘qitishda matn asosida ishlash, taqqoslash va mustaqil mashqlarni bajarish samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning grammatik bilimlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, sifatlarning nutqdagi vazifasini tushunish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili ta’limida sifat so‘z turkumini o‘rganish jarayonini sodda, tushunarli va amaliy yo‘nalishda tashkil etish o‘quvchilarning tilga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi.